

YOSH AVLODNI VOYAGA YEKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI

Tursunova Saida Isakovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

tel: +998915886422

O'rolova Ro'zigul Yo'lchi qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

2-kurs talabasi

tel: +998 992030524

Anotatsiya: Vatanimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilib, yurt istiqbolini yuqori cho'qqilarga olib chiqa oladigan avlodni tarbiyalash. Ularni tarbiyalash jarayonida ajdodlarimiz merosidan foydalanish. Har tomonlama yetuk va komil insonni voyaga yetkazish.

Kalit so'zlar: tarbiyaning ahamiyati, sharq mutafakkirlarining fikirlari, prezident fikirlari, tarbiya turlari, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy va huquqiy tarbiya.

Kishi tug'ilibdiki uning voyaga yetishi, kamol topishi, yetuk bir komil inson bo'lib yetishishi uchun ota-onasining tarbiyasi birinchi zarur omil bo'lsa, ikkinchidan jamiyat a'zolaridir. Bugungi kun talabi bugungi kun rivoji uchun munosib shaxsni voyaga yetkazish undagi tarbiyani odob-axloqni go'zal qilishdir. Abdulla Avloniy bobomiz shunday deydilar: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat masalasidir". Bobomiz bu bilan nima demoqchi kishining tarbiyasi uchun butun jamiyat a'zolari mas'uldirlar. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, rivojlanishi va davlatning qudratli mustahkam bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Tarbiya nazariyasi bu yosh avlodni har tomonlama kamol topib o'sib-ulg'ayishi, komil inson bo'lishida, ularning xulq-atvori dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lgan jarayondir. Tarbiya nazariyasi sharq mutafakkirlari ularning go'zal va pirma'no fikrlari, tarbiyaga oid asarlari va ularning tarbiya borasidagi boy tajribalariga asoslanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qonunlarini tuzish va undan foydalanishda bir qancha ma'lumotlardan foydalangan holda ish ko'radi. Bunda ular falsafa, etika-estetik, fiziologiya va psixologiya kabilarga tayanadi.

Tarbiya bu shaxsda muayyan maqsadga qaratilgan axloqiy, aqliy, jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy, etik-estetik, nafosat, mehnat, diniy va dunyoviy qarashlarni tarkib toptirish. Buarni tarkib toptirishda bir kishi emas jamoa bo'lib ishlash zarur. Tarbiyani

shakllantirishda ota-ona, pedagog va jamiyat a'zolari har birining o'zini alohida-alohida ahamiyatga ega.

Tarbiya muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning muhim bir qismi hisoblanib, u yosh avlodni tarbiyalab kamolga yetkazishning muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdir. Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlaganlar, "Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-etibori avvalombor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak". Demak kelajak bugungi kun yoshlari qo'lida. Biz ularni zehni, aqlli, axloqli, odobli, vatanparvar, mehnatsevar, yurt uchun sodiq bir shaxs etib voyaga yetkazmoq'imiz zarur. Buning uchun esa ularga berayotgan tarbiyamizni go'zal qilishimiz kerak. Ularda mehnat tarbiyasi, iqtisodiy, aqliy, axloqiy, estetik, diniy va dunyoviy qarashlarni ya'ni tarbiyani tarkib toptirish zarur. Chunki ta'lim va tarbiya bir-biriga uzviy bog'liqdir. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyani bir biriga uzviy bog'lagan holda yosh avlodni voyaga yetkazmoq lozim.

Biz uchun ta'lim-tarbiya jarayoni muhimdir. Talim tarbiyani rivojlantirmay turib mustahkam jamiyat qura olmaymiz. Chunki jamiyat rivoji uchun ilmi, dono, fozil shaxslar kerak. Bu shaxslardan onglilik, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, tafakkur qilish hissiyotlarini uyg'otmasdan turib biz ko'zlagan oliy maqsadga ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmazligini ta'kidlaydilar.

Shaxs tarbiyalashni ona qornidan boshlash kerak deydi donolarimiz. Bunga misol qilib ushbu rivoyatni keltirib o'tmoqchiman: "Qadim o'tgan zamonlarning birida bir oila farzand ko'rish arafasida ekan. Ularga ollohim farzandlik bo'lish baxtini muyassar qilibdi. Oila a'zolari bu farzandning dunyoga kelishini intilqik bilan kutishibdi. Va bu kunlar ham yetib kelibdi, ular o'g'il farzandli bo'libdi. Ular xursand bo'lishibdi. Ota kunlarning birida farzandini qanday tarbiyalash, uni har tomonlama yetuk shaxs etib voyaga yetkazish ustida bosh qotiribdi. Va bu masalada u qishloqning eng dono olimidan maslahat so'rash fikriga kelibdi. Kunlarning birida qishloqdagi dono odam huzuriga borib farzandini qanday tarbiyalash va uni qanday qilib yetuk shaxs etib voyaga yetkazishda maslahat so'rabdi. Bu kishi farzandi endigina 1 yosh bo'lganligini aytibdi. Shunda dono olim siz farzandingizni tarbiyalashda kechga qolibsiz debdi. Boyagi odam dono olimdan nima uchun kechga qolaman sababi nimada, hali mening farzandim 1yoshga endi to'lgan bo'lsa deb so'raganida, dono olim shunday deb javob beribdi: "qadiridonim bo'tam farzand tarbiyasini bola ona qornida

uning vujudida rivojlanib boshlagandayoq berib borish kerak edi", -deb javob bergan ekanlar. Demak tarbiya nazariyasi oiladan boshlanadi. Jamiyat a'zolari esa uni sayqallantirib yanada rivojlantiradi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shunday deydilar: "Hech qachon unutmashimiz kerak: ma'naviyat-bu, avvalo, insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlaridir. Bir so'z bilan aytganda ma'naviyat-jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi".

Demak biz birinchi navbatda yoshlarimiz ma'naviyatini oshirishimiz lozim. Yoshlarning ma'naviyatini ostirib kamol toptirishda birinchi omil bu unga berayotgan tarbiyamizdir. Ularda tarbiya jarayonini qanchalik tarkib toptirsak ma'naviyati ham shunchalik o'sib boraveradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim deydi. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-xurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xonlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asr bolishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bogliq". Ushbu fikrga Prezidentimiz shunday fikr bildiradilar: "Qarang, qanday bebaho, oltinga teng so'zlar". Albatta bu so'z qiymatini oltinga tenglashtirsak mubolag'a bo'lmaydi. So'z ichida qanchadan-qancha ma'no-mazmun yog'ilib turibdi. Albatta bu so'zlardan to'g'ri xulosa chiqarishimiz va farzand tarbiyasini chiroyli va mustahkam qilib berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz lozim.

Boshlang'ich sinflarda va oilada tarbiyani berish va uni shakllantirishda sharq mutafakkirlarimiz juda ko'plab qimmatli fikrlarni bildirganlar.

Shu bilan birga islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim"da inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi. "Qur'oni Karim"dagi ta'lim-tarbiyaga oid ulug' xazina Al-Buxoriy hazratlarining hadislarida beriladi. Jumladan (38-hadis) "farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga odob-axloqini ham yaxshilangiz", (136-hadis) "hech bir ota-ona o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi".

Yusuf Xos Hojibning o'qtirishicha "Har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ulgan kundan bola zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi.

Alisher navoiy asarlari 500 yildan buyon ko‘plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat g‘oyalari, insonning oliy maqsadlarini kuylash, Navoiy merosida asosiy o‘rin tutadi. Navoiyning pedagogik qarashlari o‘ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan, Navoiy farzand tug‘ilishini oilaga olib keluvchi quvonch va shamchiroq, deb bilgan. Navoiy bolaga tarbiyani uning yoshiga qarab berish va bu jarayonni uning yoshligidan boshlash zarurligini ta’kidlab o‘tadi. Tarbiya va kerakli fanlarni o‘rganishni iloji boricha barvaqt boshlamoq lozim deya ta’kidlaydi. Navoiy bolaning voyaga yetishi, yetuk va komil inson bolib ulg‘ayishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Bolaning yetuk va foydali shaxs bo‘lib yetishishi tarbiya natijasidadir deb ta’kidlaydi. Tarbiya insonning o‘zida go‘zal fazilatlarni, hislarni, xissyotlarni, odob va axloqni hosil qilishga yordam beradi. U kishining jamiyat a’zolari ya’ni insonlar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ruhiy-ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi deb, kishini voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Tarbiya jarayoni juda ko‘plab turlarni o‘z ichiga oladi. Bular mehnat tarbiyasi, aqliy va axloqiy, estetik tarbiya, ijtimoiy va huquqiy tarbiya va h.k ni o‘zida mujassamlashtiradi.

Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo‘lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishida ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ishchanlik, ishning ko‘zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo‘lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turidan oldin paydo bo‘lgan

Mehnat tarbiyasini asosan oiladan tarkib toptirish zarur. Oilada o‘z o‘yinchoqlarini yig‘ishtirishi yoki ota-onasiga ko‘maklashish kabi juda ko‘plab ishlar orqali rivojlantirib boramiz. Keyinchalik esa bog‘cha va maktablarda davom ettiriladi. O‘quvchilarda mehnat tarbiyasini shakllantirishda hikmatga boy hikoyalar ibratli so‘zlar va maqollardan ham unumli foydalanishimiz. Va bu hikmatga boy bo‘lgan hikoya, ibratli so‘z va maqolardan ijobiy xulosalar chiqara olishlariga ko‘maklasha borishimiz lozim. Bundan tashqari mehnat tarbiyasining turlari haqida ham qisqacha tushuntirishlar berib ketsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Axloqiy tarbiya-xarakterning axloqiy sifatlari, ko‘nikmalari va xulq-atvorning shakllanish jarayoni. Axloqiy tarbiya mulohaza, hissiyotlar va etiqodlar, jamiyatning tegishli me’yorlariga mos keladigan ko‘nikmalar va xulq-atvorning axloqiy tushunchalarini shakllantirish kabi vazifalarni hal qiladi. Axloqiy tarbiyaning asosiga jamiyatning rivojlanish jarayonida insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan umuminsoniy qadriyatlar, o‘tkinchi bo‘lmagan me’yorlar qatori jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida paydo bo‘lgan yangi qoidalar va me’yorlar yotadi. O‘tkinchi bo‘lmagan

axloqiy sifatlar halollik, adolat, burch, tartiblilik, mas’ullilik, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat, insonparvarlik, beg’arazlilik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat kabi juda ko‘plab fazilatlarini o‘zida qamrab oladi.

Farobiy o‘z asarlarida ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: "Har kimki ilim hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshlikdan boshlasin, sog‘ salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, bilimli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin". Bu fikrlarda forobiyning ta’lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim ma’rifat albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erisholmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi. Aqliy tarbiya-shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy bilish qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi.

Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlari bilan tanishtirish, ularda ijobiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.

Abu Nasr forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi. Allomaning mazkur fikrini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko‘radi". Albatta kishining o‘z bilimining chinligini isbotlash uchun taqqoslashlar olib borishi uning o‘zidagi aqliy faoliyatni yanada rivojlanib ravnaq topishida muhim omil sanaladi. Aqliy jihatdan o‘z bilimiga ega bo‘lgan inson o‘z fikrini to‘g‘ri va ravon bildira oladi va bu fikrning to‘g‘ri ekanligini isbotlab ham beroladi.

Iqtisodiy tarbiya-o‘quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantirish. Bu so‘zning manosi juda keng bo‘lib xalq ichida bu "tejamkorlik" so‘zi bilan sinonim bo‘lib keladi.

Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarning ota-onasi bergan pullarni to‘g‘ri yo‘lda sarflashi, bu pul mashaqqatli mehnat ortidan kelganligini tushuntirish orqali singdirilib borilishi kerak. O‘quvchilarning ongida mehnatning orqasidan iqtisodiy mablag‘ kelishi va bu mablag‘ni to‘g‘ri yo‘lda sarflashni shakllantirish. Iqtisodiy tarbiya

bo'yicha olimlarimiz fikrlaridan misollar keltirib tushuntirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

A.N.Farobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi". Abdulla Avloniy "iqtisod deb, pul va mol kabi nematlarning qadrini bilmakka aytilur"- degan qimmatli fikrlarni bolalarga tushuntirish va ularning ijobiy xulosalar chiqarishida ko'maklashish zarur.

Islom karimov "iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi" degan va eng muhim ustuvor vazifani amalga oshirishni strategik masala deb hisoblar edilar.

Shavkat Mirziyayev hammangiz yaxshi tushunasiz, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruxi-ma'naviyatdir. Biz yangi o'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillarga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz". Demak o'quvchilar ongida iqtisodiy tarbiyani rivojlantirish eng muhim masalalardan biridir.

Nafosat tarbiyasi-(estetik tarbiya-lotincha "esteziya" go'zallikni his qilaman)- o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarni anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Nafosat bilimlari aniq tarbiyaviy ishlar tanlov, viktorina, bayram, ko'rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy va ijodi faoliyatlarda namoyon etadilar.

Jismoniy tarbiya-ta'limning bir turi bo'lib, uning mazmunining o'ziga xosligi harakat mashqlarini o'rgatish, jismoniy sifatlarni shakllantirish, maxsus jismoniy tarbiya bilimlarini o'zlashtirish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga ongli ehtiyojni shakllantirishni aks ettiradi.

Jismoniy (jismoniy) rivojlanish-bu ehtiyoj, muntazamlilik va oldindan belgilangan tendensiya (progressiv yoki regressiv) bilan tavsiflangan inson tanasidagi o'zgarishlari majmuyi. Jismoniy tarbiya oquvchilarning jismoniy tomonidan chiniqishi va sog'lom bo'lishi uchun muhim omildir. "Sog' tanda sog'lom aql" (Ibn Sino) kishi jismoniy tomonlarni sog'lom bo'lsa undan juda ko'p narsalarni kutish mumkin. Mashhur yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: "Inson uchun birinchi baxt uning sog'lig'i, ikkinchisi-go'zallikdir", degan ekan. Chindan ham sog'lik-salomatlik barcha boyliklarning manbayidir. Nasl-nasabi sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom-baquvvat, jasur va ma'naviyatli buladilar. Sog'lom va

ma'naviyatli inson vatan istiqboli uchun qayg'uradi. Xalq rivoji, baxtu-saodati uchun esa ana shunday avlod kerak.

Ibin Sino bobomiz ham o'z asarlarida badan tarbiyasi bo'yicha juda ko'plab fikrlar bildirib o'tgan. "Sog'lik-tuman boylik", "Sog' bo'lay desang, choy meva yesang" mana shunga o'xshash ko'plab ibratli fikrlarni bolalarga o'rgatib ularda badan tarbiya kishi uchun qanchalik zarur ekanligini tushuntirish kerak. Huquqiy tarbiya-bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlar doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayonidir. O'quvchilar ongiga huquqiy madaniyatni singdirib borishda konstitutsiya va davlat haqidagi ta'limotlarni berib borishimiz ko'zda tutiladi. O'quvchilar ongiga adolatparvarlik ruhini singdirish. Har bir kishining o'z haq-huquqi borligi bu esa ma'lum qonun-qoidalar asosida konstitutsiyamizda belgilab qo'yilganligi haqida bilim va ko'nikmalarini huquqiy tamonlama ham boyitib borish zarur. Shu bilan birga o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida ularga insonparvarlik, halollik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik, ezgulik, ma'rifatparvarlik va hokazo kabi juda ko'plab go'zal fazilatlarni ham singdirib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. O'ylaymanki ushbu tarbiyalarni va fazilatlarni o'zida mujassam qilgan o'quvchi shaxs bizning ertangi kunimiz davomchisi, yurtimizning iftixori bo'lib voyaga yetadi. Vatanimiz istiqbolini bundanda yuqori cho'qqilarga olib chiqa oladi!

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda ko'pincha interfaol metodlardan foydalanish kerak. O'quvchilarga qo'yiladigan talablardan biri bu— mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Buning uchun ular bilan turli xildagi qiziqarli o'yinlar o'ynash, topishmoqlar, maqollar va she'rlar yodlatish jismoniy va aqliy rivojlanishi, nutqiy bilimdonligini oshiradi. Hozirgi kunda eng samarali usullardan biri—inglizcha multafilmlarni ko'rishi. Bolalar multafilmda o'zga ularni tushunmasada, undagi qahramonlarning harakatlaridan nima deyotganini anglab oladi. Bunday usullar bolalarning inglizva rustillarini yuqori natijada o'rganishga yordam beradi. Men bolalarni so'zni his qilishni, jummalarni tuzishni, matnni tushunishni o'rgatmoqchiman. Men bu muammoni maktabdan tashqarida hal qila boshladim. Men ushbu masalani o'rganishni va “Milliy maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirish lingvistik-metodik muammo sifatida” mavzusida amaliy material to'plashni boshladim. Boshlang'ich maktab yoshida intellektning jadal rivojlanishi kuzatiladi. Qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyati juda yuqori. Kichik maktab o'quvchilarining rus tilida kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda eng kam rivojlangan uslubiy muammo bo'lib qolmoqda. Ko'pgina sinflarda turli darajadagi tayyorgarlik darajasidagi bolalar bor, bu turli darajadagi murakkablikdagi vazifalarni talab qiladi. O'qituvchi har qanday o'quvchini individual qobiliyatiga qarab rivojlantirishi va har bir shaxsning ijodiy imkoniyatlarini aniqlashi kerak. Mashg'ulotlar davomida bola o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat

qilish va o'zini o'zi qadrlashning rivojlangan shakllarini rivojlantiradi. Darsda qiziqarli va tushunarli topshiriq va mashqlar, topshiriqlar, savollar, topishmoqlar, o'yinlar, boshqotirmalar, krossvordlar va boshqalar qo'llanilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X.To'xtaxodjayeva, S.Nishonova, J.Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S.Madiyarova,A.Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov. "Pedagogika" Toshkent-2010-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent-"O'zbekiston"-2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir". "Tasvir" nashriyot uyi Toshkent-2021.
4. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" "A.Qodiriy" nashriyoti T.1993-yil
5. Tursunova Saida Isakovna, «Milliy maktablarning boshlang'ich sinflarida og'zaki nutqni rivojlantirishning lingvistik-metodik muammolari». Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasida o'qituvchisi.